



МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХЭМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

ЎЗБЕКИСТОН ССРДА ТАБИАТНИ МУҲОҒАЗА ҚИЛИШДАГИ ҚОНУНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Rakhimova G.S.

*Toshkent Turin politexnika universiteti
menejment, iqtisod va gumanitar fanlar bo'limi
tarix fanlari doktori (DSc)*

Rasulov M.A.

Qo'qon davlat pedagogika instituti biologiya kafedrasida o'qituvchisi

Yakubov K.N.

Qo'qon davlat pedagogika instituti tarix kafedrasida o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: sanoat, korxonalar, qaror, neft, metallga ishlov berish, ko'mir, gaz, qurilish, atrof-muhit, salomatlik, iqlim o'zgarishi.

Ключевые слова: промышленность, приказ, предприятие, нефть, металлообработка, уголь, газ, строительство, окружающая среда, здоровье, изменение климата.

Key words: industry, enterprise, oil, metalworking, coal, gas, construction, environment, health, climate change.

Резюме:

Maqolada O'zbekiston SSRda sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta'sirlari, qabul qilingan qarorlarning amaliy natijalari, kimyo, qurilish, neft, gaz sanoat turlari kengayishi natijasida qishloq xo'jaligi sanoati majmuasi shakllantirilishi, tabiiy qazilmalarining qazib olinishi natijasida atrof-muhitning iqlim o'zgarishlariga olib kelish sabablari tarixiy manbalar asosida yoritib berilgan.

Резюме:

В статье рассмотрено негативное воздействие промышленных предприятий на окружающую среду в Узбекской ССР, практические результаты принятых решений, формирование агропромышленного комплекса в результате расширения химической, строительной, нефтяной, газовой промышленности, на основе исторических источников объяснены причины изменения экологического климата в результате добычи природных ресурсов.

Summary:

In the article, the negative effects of industrial enterprises on the environment in the Uzbek SSR, the practical results of the adopted decisions, the formation of an agricultural industrial complex as a result of the expansion of the chemical, construction, oil, gas industries, the reasons for the environmental climate changes as a result of the extraction of natural resources are based on historical sources. explained.

Kirish. Qariyib to‘rt yil davom etgan ikkinchi jahon urushi mamlakatda xalq xo‘jaligini tinch izga o‘tkazish borasida bir qator ishlarni amalga oshirishni talab edi. Zero, sanoatni tinch hayotga moslab qayta qurush urushdan keyingi yillarda katta qiyinchiliklar bilan amalga oshirildi, hamda xalqning hisobsiz moddiy va jismoniy harakatlarini talab qildi. Ikkinchi jahon urushi yillari O‘zbekistonga ko‘chirib keltirilgan sanoat korxonalarining mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarini ko‘payishiga xizmat qildi. O‘zbekiston Kommunistik Partiyasining buyrug‘iga asosan X syezdda 90 dan ortiq katta zavod va fabrikalar evakuvasiya qilingan edi. 1945-yil 26 mayda Davlat Mudofaa Qo‘mitasining “Qurol-yarog‘ ishlab chiqarishni qisqartirish munosabati bilan sanoatni qayta qurush tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori chiqdi. Bu bilan butun mamlakat miqyosida ko‘p korxonalari va butun sanoat tarmoqlari tinchlik davri mahsulotlarini ishlab chiqarishga o‘tkazildi.

Metodologiya. 1940-yillardan O‘zbekistonda paxta tozalash, to‘qimachilik, oziq-ovqat, kimyo kabi ko‘plab tarmoqlarni rivojlantiruvchi sanoat korxonalari ishlagan bo‘lib, urush yillari frontga mahsulot yetkazib berish bilan bir vaqtda qishloq xo‘jaligi uchun mashina, mexanizm, uskunalar va iste‘mol buyumlari ham ishlab chiqarildi. 1940-yillarda kimyo-7,6 foiz, elektroenergiya-24,3 foiz, tekstil-28,3 foiz, qurilish mollari-31 foiz, paxta tozalash-10 foiz, oziq-ovqat-14 foiz yalpi mahsulot ishlab chiqarildi. 1943-yilda ham kimyo, metallga ishlov berish, yoqilg‘i, elektr energiyasi, mashinasozlik, qurilish mollari, tekstil, paxta tozalash, oziq-ovqat sanoat korxonalari ishladi. Ayni paytda mamlakatda uch turdagi: davlat, koopyerativ va xususiy sanoat korxonalari 1942-yilga kelib, xususiy va koopyerativ sanoat korxonalari faoliyati davlat sanoat korxonalari tasarrufiga o‘ta boshladi va 1940-yilda koopyerativ sanoat korxonalarining 19 foizi, davlat sanoat korxonalarining 81 foiz ishlab chiqarishni xajmini tashkil etdi[1]. 1940-yilda O‘zbekistonda jami 55 ta paxta tozalash sanoat korxonasi faoliyat yuritib kelgan bo‘lsa, korxonaning soni 1950-yili 63 ta, 1960-yili 65 ta, 1979-yili 107 ta[2] ga etdi.

Adabiyotlar tahlili. P. Oldak o‘z tadqiqotlarida “tabiatni muhofaza qilish tizimlariga loqaydlik 1973-yilga kelib Ukraina, Moldaviya, Shimoliy Kavkaz xududlarida ham sanoat korxonalari aholi turmush tarziga, qishloq ho‘jaligi mahsulotlariga jiddiy zarar keltirdi”[3] - deb ta’kidladi. O‘zbekistonning ko‘plab sanoat korxonalarida atrof-muhitni muhofaza qilish tizimlari yetishmadi va vaqtida ta’mirlanmadi. Ayniqsa kimyo, neft va kon sanoatlarida texnik ta’minotlar ancha orqada qolgandi.

1962-yilda Markaziy epidemiologik nazorat bo‘lim rahbari N.Masharipov, O‘zbekiston ilmiy-tadqiqot institutining sanitariya, gigiena direktori O‘zSSRda xizmat ko‘rsatgan olim, dosent A.Z.Zahidov boshchiligida tekshiruvlar o‘tkazilganda, 1962-yilda respublika O‘rta Osiyo tif-paratif kasalliklari bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan aholi soni jihatdan 45 foizni tashkil etganligi aniqlangan[4].



Bu ittifoqdosh respublikalar orasida O‘zbekiston yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘ldi. Yuqumli va oshqozon-ichak kasalliklar ko‘proq suvdan tarqalishi va ifloslangan ichimlik suvini iste‘mol qilishi natijasida aholining zaharlanishi yuzaga kelgan.

Iqtisodchi N.Petrakovni ta‘kidlashicha, “sanoatlashtirish siyosatini jadallik bilan amalga oshirilishi oxir oqibat kuchli muammolarga duch keldi: iqtisodiyot, millarlararo munosabatlar va ekologiyada ko‘rindi”[5] -deya mulohazalar yuritgan. 1989-yilda sobiq Ittifoq ko‘plab syezdlari va majlislarida besh yillik rejalar asosida qurilgan gigant sanoat korxonalarining atrof-muhit, suv, havo va iqlim o‘zgarishlariga olib kelganini muhokama qilib o‘tdi. Lekin bu ma‘ruza va ma‘lumotlar faqat qog‘ozlarda qolib ketgan. Sanoatlashtirish siyosatida tabiat resurslarini tejamkorlik bilan ishlatilmasligi ekologik muammolarga sabab bo‘lgani, sanoat korxonalarini iqtisodiy inqirozlari tufayli ishsizlikning ortib borishi, millatlar o‘rtasida nizolarga olib keldi.

Natijalar. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, urushdan keyingi yillarda sanoatni tinch hayotga moslab qayta qurush katta qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘ldi. Xalq xo‘jaligi qurilishining o‘ziga xos xususiyati uzoq muddatli rejalashtirishni besh yillik reja bilan birga qo‘shib olib borish borishdan iborat bo‘ldi. U xalq xo‘jaligining 15 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishi, masalan, sanoat ishlab chiqarishni uch baravarga oshirishni, oziq-ovqat va xom ashyo resurslarining mo‘l-ko‘lligini ta‘minlashni nazarda tutgan edi. Bu noilmiy loyihada yana ilgari gidek O‘zbekistonga SSSR paxta mustaqilligining kafolati sifatida asosiy o‘rni ajratildi[6]. Respublika tinch hayotga ishlashga moslashayotgan vaqtda sanoat uchun, aholini oziq – ovqat va xalq iste‘mol mollari bilan ta‘minlash uchun yoqilg‘iga, elektr quvvatiga, xom ashyoga katta ehtiyoj sezar edi, shuningdek malakali ishchi kadrlar yetishmadi. Avvalo, respublika xalq xo‘jaligi “paxta uchun kurash”ning tarkibiy qismiga aylandi. Bunday sharoitda paxtachilik va irrigasiya qurilishi uchun mashinalar, shu jumladan, kultivatorlar, o‘g‘itlagichlar, chigit ekish seyalkalari, ko‘rak terish mashinalari, ekskavatorlar, buldoz yerlar va boshqalarni ishlab chiqaradigan mashinasozlik zavodlarini qayta qurush va yangi zavodlarni yaratish yuzasidan katta ishlarni avj oldirib yuborildi. Asosiy qurilishlar respublikaning markaziy shaharlariga joylashtirildi. Birgina Toshkent shahridagi sanoat korxonalari asosan paxtachilik bilan bog‘liq tarmoqlardan iborat bo‘ldi[7].

Tahlillar. Albatta, sovet hukumati tabiatni asrash masalalariga alohida e‘tibor bilan qaradi. Shu maqsadda bir qator hujjatlar, jumladan, O‘zbekiston SSRda ham 1959-yil O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining “Tabiatni qo‘riqlash haqida”gi qonuni qabul qilindi. Qonunda O‘zbekiston hududidagi barcha tabiiy boyliklardan foydalanishni davlat tomonidan tartibga solish va muhofaza qilish belgilandi[8]. 1960-yil 22 aprelda SSSR Ministrlar Sovetining “SSSRda suv resurslaridan

foydalanishni tartibga solish va muhofaza qilishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi[9] qarorlar qabul qilindi.

Biroq, ko‘mir sanoat korxonalarida quvvat manbai va aholini issiqlik tizimi bilan ta‘minlashda ham muhim o‘rin egalladi. Qazib olingan yoqilg‘i va yonilg‘ining sanoat zahiralari Angren, Sharg‘un va Boysun konlarida joylashgan bo‘lib, qazib olinayotgan ko‘mirning deyarli 96.5 foizi qo‘ng‘ir ko‘mir va qolgani toshko‘mirdan iborat bo‘ldi. O‘zbekiston xalq xo‘jaligida kimyo sanoati ustuvor o‘rinlardan birini egalladi. O‘zbekistonda kimyo sanoatini rivojlantirishda birinchi navbatda Chirchiq elektr kimyo kombinati ishga tushirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan edi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda respublikada Qo‘qon superfosfat zavodi, Samarqand superfosfat zavodi barpo etildi. Undan so‘ng birin - ketin Farg‘ona azotli o‘g‘itlar zavodi, Navoiy kimyo kombinati, Olmaliq kimyo zavodlari ishga tushirildi. Farg‘ona gidroliz zavodi 1946-yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning tarkibida spirt, furfurola ishlab chiqaradigan gidroliz-spirt zavodi, loyiha bo‘yicha yiliga 100 tonna kislota, yiliga 880 ming m³/vodorod, 290 ming m³ kislorod, yiliga 620 tonna uglekisliq gaz, ksilitan va furfurola ishlab chiqaradigan sex, katali-zator, gidrotormozn suyuqligi, suyuq shisha tayyorlaydigan sex, yer osti suvlarni va davr suvlarining nasos sexi, elektrosex, ta‘mirlash-mexanika sexi, ta‘mirlash - qurilish sexi va boshqa sexlar ham zavod tasarrufida bo‘ldi. Zavod uchun asosiy xom ashyo Farg‘ona yog‘-moy kombinatidan keltirilgan sheluxa hisoblangan[10].

Korxonaning ko‘plab chiqindi tozalash texnik qurilmalarini ishdan chiqishi avvalo, ishchi-xodimlarning salomatligiga salbiy ta‘sir etardi. Afsuski, ijtimoiy muammolar o‘z vaqtida oldi olinmasligi, atrof-muhitning sanoat korxonalarini chiqindilaridan keskin zararlanishi, aholining dehqonchilik, bog‘dorchilik va chorvachilik sohaslariga salbiy ta‘sir eta boshladi. Sanoat korxonalarining chiqindilaridan Markaziy Osiyoning tabiiy va antropogentida o‘zgarishlar sodir bo‘ldi[11]. Kimyo sanoati korxonalaridagi ishning og‘irligi va kimyoviy changlar ta‘sirida ishchilarning zaharlanish holatlari ma‘sul rahbarlarni tashvishga solmadi. Ishchi xodimlarning salomatligi yo‘lida to‘lanadigan qo‘shimcha mablag‘lar esa ularning salomatligini davolashga yetarli bo‘lmadi. Ma‘muriy-buyruqbozlik boshqaruvi modeli sanoat korxonalarida mahsulotlarning sifatini yaxshilashga, korxonada xodimlarining moddiy rag‘batiga e‘tibor berilmasligiga hamda korxonada ishlarining umumiy natijalarini inqirozga olib kela boshladi. 1986-yilda O‘zbekistonda bir kun davomida 471 ta sanoat korxonalar chiqindi tashlamalarni daryolarga oqizib kelgan[12]. Kimyo sanoatining tabiatga keltirgan salbiy ta‘siri respublikadagi asosiy daryolarning suvi sifatidagi o‘zgarishlarida ko‘rindi. Natijada, daryo suvlaridan foydalanish imkoniyatlari cheklanib qoldi. Suvning tarkibidagi kimyoviy zaharli tashlamalar tuproqning hosildorligini pasayishiga olib kelgan. Sanoat majmualariga yaqin hududlarda o‘simliklar hosildorligi 30



foizgacha kamayib ketishiga olib keldi. Bundan tashqari o‘simliklar dunyosiga suv, tuproq va havodagi kimyoviy chiqindi chang tarkiblari ham salbiy ta‘sir etib o‘simlik turlarining yo‘q bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun o‘simliklardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini olib borish muhim bo‘ldi. O‘zbekiston bo‘yicha o‘rmonlarni muhofaza qilish bo‘yicha ajratilgan yerlar.

1961-yil 27 noyabrda O‘z SSR Ministrlar Soveti, O‘z SSR Oliy Kengashi Prezidiumi va O‘zbekiston KP MQning 835-sonli qo‘shma qarori bilan “O‘zbekiston tabiatni qo‘riqlash va ko‘kalamzorlashtirish jamiyati” tashkil qilindi. 1963-yil fevralda O‘z SSR Oliy Kengashining 6-chaqiriq 1-sessiyasida “Tabiat va tabiiy boyliklarni muhofaza qilish” bo‘yicha O‘z SSR Oliy Kengashining doimiy deputatlik komissiyasi viloyat, shahar va tumanlar deputatlar kengashlarida ham tashkil etildi[13]. 1962-yil 12-iyul “Yerlarning davlat hisobini yuritish va ulardan qishloq xo‘jaligida foydalanishni yaxshilash to‘g‘risida”gi[14], Tadbirlar maktab, bog‘cha va sanoat korxonalarida tabiat muhofazasi uchun “Yosh tabiatshunoslar” guruhlari tuzildi, turli jamg‘armalar tashkil etish boshladi. 1972-yil 20-sentyabr SSSR Oliy Kengashining “Tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan unumli foydalanishni yanada yaxshilash choralari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda 1972-yil 29-dekabr KPSS Markaziy Qo‘mitasi va SSSR Ministrlar Sovetining “Tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash va tabiatni muhofaza qilishni kuchaytirish to‘g‘risida”gi va yana bir qator qarorlari qabul qilindi. Bu hujjatlar atrof-muhitni himoya qilish ishlarida yangi bosqichni belgilab bergandek ko‘rinsada, sovet xalq xo‘jaligida besh yillik rejalarning belgilanishi va ularni bajarilishini qat‘iy talabi belgilangan vazifalarni bajarishga imkon bermadi. 1961-yil 27-noyabrda O‘zSSR Ministrlar Soveti, O‘zSSR Oliy soveti Prezidiumi va O‘zbekiston KP MQ “O‘zbekiston tabiatni qo‘riqlash va ko‘kalamzorlashtirish jamiyati”ni tuzdi. 1963-yil fevral oyida O‘zSSR Oliy Sovetining 6-chaqiriq 1-sessiyasida “Tabiat va tabiiy boyliklarni muhofaza qilish” bo‘yicha O‘zSSR Oliy Sovetining doimiy deputatlik komissiyasi tashkil etildi. Bunday komissiyalar viloyat, shahar va tuman deputatlar kengashlarida ham shakllantirildi[15].

1979-yilda mamlakatda “Atmosfera havosini muhofaza qilish” to‘g‘risida qonun qabul qilindi[16]. Qonunda davlat miqyosidagi yirik korxonalarda zaharli gazlar va boshqa chiqindilardan himoya qiluvchi vositalarni o‘rnatish, korxonalar davlat tashkilotlari tomonidan beriladigan ruxsatnomalar asosidagina ishlashini ta‘minlash masalalari belgilab qo‘yildi. Shuningdek, atmosferani kuzatish va uni muhofaza qilish bo‘yicha davlat nazorati tizimini tuzish vazifasi ham belgilandi. 1988-yilda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbatan Ittifoqqa boysunuvchi korxonalar, birlashmalar ishlab chiqargan sanoat mahsulotining salmog‘i umumiy sanoat mahsulotlari hajmida 38 foizni, Ittifoq respublika vazirliklari va idoralariga

bo'ysunuvchi korxonalar mahsuloti 54 foizni, faqat yalpi sanoat mahsulotining 8 foizi respublika va mahalliy sanoat hissasiga to'g'ri keldi[17]. Ayni paytda sanoat korxonalarining atrof-muhitga keltirgan jiddiy ta'sirlari sabab, O'zbekiston hududida 27 foiz havo, suv, tuproq sifati bo'yicha atrof-muhit milliy standartlari talabiga mos keldi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy va Farg'ona viloyatlari atrof-muhitiga va tabiiy resurslar bazasi anchagina jiddiy bosimlar ostida turdi[18].

1967-yilda atrof-muhitni muhofaza qilish organlari tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlarda esa O'zbekistonda ariq, kanal va daryo suvlariga bir sutka davomida sanoat korxonalarini tomonidan 2304 ming kubo metr chiqindi suvlar tashlanganligi aniqlandi[19]. Jumladan, Toshkent, Samarqand viloyatlaridagi sanoat korxonalarining chiqindi changlari belgilangan me'yor PDK miqdoridan 10-12 baravar atmosfera havosini ifloslanishiga olib kelgan. Atmosfera havosining ifloslanishidan xalq aziyat chekkan, 1969-yilda aholi orasida o'pka kasalligi, piodermiya konyuktiv kasalliklari soni ortgan. Chirchiq kimyo kombinati chiqindilari bo'lgan azot kislotasi, ammiak kimyo vositalari Bo'zsuv kanalini ifloslab keldi. Toza ichimlik suvining kimyoviy vositalardan ifloslanishi aholi orasida tish yemirilishi, oshqozon sekresiyasi, oshqozon-ichak kasalliklarini 3-10 baravarga ortib borishiga olib keldi.[20]

Aslida, 1966-1970-yillar davomida O'zbekistondagi 92 ta korxonalar tozalash uskunalari, 102 korxonalar kanalizatsiya tizimlari bunyod etish rejalashtirilishiga qaramay, respublikada 13 ta tozalash uskunalari va 14 ta kanalizatsiya tizimiga ulandi.[21] Rejada berilgan vazifalarning o'z vaqtida bajarilmay to'xtab qolishi, sanoat korxonalaridagi zararli kimyoviy va metall chiqindilarning ta'siri nafaqat atrof-muhitga balki ishchi-xodimlarning salomatligiga ham salbiy ta'sir etib keldi. Sanoat korxonalar ishchilari o'z ishlarini yo'qotib qo'yishdan qo'rqib ishni tashlab keta olmadi. Lekin ularning salomatligi va sanoat korxonalar sanitariya-gigienik vaziyatlarini yetarlicha ta'minlab bermadi. Ko'plab kimyo, neft, metallurgiya ishchi xodimlari salomatligini asrash, o'zini sterilizatsiya qilish maqsadida alkogol ichimliklarni iste'mol qilish me'yoridan ortib ketdi. Natijada, sanoat korxonalarida alkogolizm bilan kasallanganlar soni ortib bordi. 1986-yilda Jizzax, Qarshi, Samarqand, Navoiy, Termiz, Toshkent, Qoraqalpog'iston ASSR, Xorazm viloyatlari sanoat korxonalarida ishchilar kasallanishining ortib borishi bilan 12 ta tuberkulyoz va 23 ta narkologiya kasalxonalarini ochildi.[22]

Xulosa. Atrof-muhitning asrash bo'yicha qarorlar ekologik vaziyatning o'zgarib borishi yashil olam bilan bog'liq o'simlik, daraxtlarning asrashdagi hatti-harakatlar inobatga olinmadi. Meyoriy hujjarlarning sanoat korxonalarini tomonidan buzulishi oziq-ovqatlar mahsulotlari zararli chiqindilardan zaharlanib aholi salomatligiga sezilarli ta'sir esa boshladi. Afsuski, qabul qilingan qarorlar sanoat korxonalarida



eskirgan chiqindini tozalash qurilmalarni ta'mirlashga xizmat qilmadi. 1980-yilning oxirlariga kelib bir qator muammolar kelib chiqq boshladi. Ittifoqdosh respublikalarda bo'lgani singari aholi orasida iqtisodiy va ijtimoiy masalalarga nisbatan noroziliklar ko'tarila boshladi. Barcha respublikalar qatori O'zbekistonda ham iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish sekinlashdi, ichki muammolarning subyektiv tarzda hal etilishi ziddiyatlarni yanada kuchaytirdi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi qaror va qonunlar amalda o'z ijrosini topmadi va korxonaning daromaddan ko'ra atrof-muhitga ziyonlarining ko'p bo'lishi, aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatgani ma'ruzalarda ta'kidlab o'tildi. Atrof-muhitdagi tabiat mavjudotlarining ba'zi turlarini yo'qolib borishida sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindi changlarni ta'siri katta bo'lgan. Hayvonlar va o'simliklar dunyosida ko'payish tizimdagi halokat turlarning "Qizil kitob"ga kirishiga olib keldi.

Адабиётлар:

1. Советский Узбекистан за 40 лет. Стат., сборник. –Ташкент: Узбекистан, 1964. –С. 39.
2. Узбекская ССР. –Ташкент:1981. –С. 191.
3. Олдак П.Г. Сохранение окружающей среды и развитие экономических исследований. – Новосибирск: Наука,1980. –С. 116.
4. Ўз Р Миллий тиббиёт илмий техник архиви. 194-фонд, 1-рўйхат, 203-йиғма жилд, 62-64-варақлар.
5. Петраков Н. Экономика: тревога и напряженность // Наука и жизнь. 1989 год № 10 октябрь. –С. 6.
6. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Иккинчи китоб. – Тошкент. Шарқ, 2000. –Б. 502.
7. Paul Stronski. Tashkent : forging a Soviet city, 1930–1966. USA. University of Pittsburgh Press. 2010. –P. 210.
8. Ўз МА. Р- 2742-фонд, 1-рўйхат, 13-йиғма жилд, 41-42-варақлар.
9. Об охране окружающей среды: Сборник документов партии и правительства, 1917–1985 гг. – Москва: Политиздат, 1986. –С. 86.
10. Ўз МА. Р-2598-фонд, 1-рўйхат, 10-йиғма жилд, 9-варақ.
11. Yu. Zhang, D. Zhang. Characteristics and utilization of plant diversity and resources in Central Asia. Regional Sustainability. 1 (2020) –P. 9.
12. Бахромов С. Здоровоохранения Узбекистана: проблемы и перспективы // Коммунист Узбекистана. 1988 год, - № 7 июль. –С. 28.
13. Ўз МА Р-2742-фонд, 1-рўйхат, 13-йиғма жилд, 131-варақ.
14. Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам. Т. 5. 1962–1965 г. – Москва., 1968. –С. 157.
15. Ўз МА. Р- 2742-фонд, 1-рўйхат, 13-йиғма жилд, 131-варақ.
16. Закон Союза Советских Социалистических Республик. Закон об охране атмосферного воздуха // Известия. 1979, 20 декабря.
17. Мирсаидов М. Экономический суверенитет республики. – Ташкент: Узбекистан, 1990. –С. 16.
18. Қосимова С, Шожалилов Ш, Бадер А. Атроф-мухитни муҳофаза қилиш ва шаҳар иқлимшунослиги. –Тошкент: Истиклол, 2005. –Б. 9.
19. Ўз МА. Р-2745-фонд, 1- рўйхат, 87- йиғма жилд, 15-варақ.
20. Ўз МА. Р-2742-фонд, 1-рўйхат, 87- йиғма жилд, 16-варақ.
21. Ўз МА Р-2742-фонд, 1-рўйхат, 2- йиғма жилд, 7-варақ.
22. Бахромов С. Здоровоохранения Узбекистана: проблемы и перспективы // Коммунист Узбекистана. 1988 год № 7 июль. – С. 28.